

**AMALIY SAN'AT DARSLARIDA INNOVATSION
TEXNOLOGIYALARNING O'RNI**

Xolbekova O'g'iloy Isroil qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti. O'zbekiston

O'qituvchi ugiloy.kholbekova@inbox.ru +998507479713

Annotatsiya: *Mazkur tezisda amaliy san'at ta'limi jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llashning dolzarbligi, ularning o'quvchilarning ijodiy fikrlashini shakllantirishdagi o'rni hamda dars samaradorligini oshirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Innovatsion yondashuvlar orqali san'at va texnologiyani uyg'unlashtirish imkoniyatlari ko'rsatib beriladi.*

Kalit so'zlar: *amaliy sanat, innovatsion texnologiya, raqamli vosita, interaktiv metod, ijodkorlik, multimedia, grafik dizayn, 3D modellashtirish, onlayn platform,*

Bugungi kunda ta'lim sohasida yuz berayotgan yangilanishlar, xususan, raqamli transformatsiya, amaliy san'at darslariga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. An'anaviy dars uslublariga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish, o'quvchilarning san'atga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning estetik didi va ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Amaliy san'at darslarini quyidagi innovatsion vositalar orqali yanada qiziqroq va talabaga tushunarliroq tarzda tashkil etish mumkin desak mubolag'a bo'lmaydi.

- Interaktiv doskalar va multimedia proyektorlar – san'at asarlarini vizual tahlil qilish, bosqichma-bosqich ijodiy ishlash.
- Grafik dizayn dasturlari (Adobe Photoshop, CorelDRAW, Canva) – naqshlar, kompozitsiyalar yaratish.
- 3D modellashtirish dasturlari (Blender, Tinkercad) – hunarmandchilik buyumlarini virtual muhitda yaratish.



- Onlayn platformalar (Google Classroom, Padlet, Kahoot) – masofaviy darslarni tashkil qilish va interaktiv baholash.
- Shuningdek, virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR) texnologiyalari orqali o‘quvchilar tarixiy san’at asarlarini “jonli” tajriba asosida o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar.

Bunday innovatsion texnologiyalarning asosiy afzalliklari, ta’lim jarayonini vizual va interaktiv qilish, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va yaratuvchanlik ko‘nikmalarini shakllantirish, har bir o‘quvchining shaxsiy qiziqishi va iste’dodini rivojlantirishga yo‘naltirish, o‘quvchilarning axborot madaniyatini oshirishdan iborat bo‘ladi.

Xulosa. Amaliy san’at darslarida innovatsion texnologiyalarni maqsadli va o‘rinli qo‘llash orqali nafaqat dars samaradorligi oshadi, balki o‘quvchilar san’at orqali o‘z fikrini ifodalash, zamonaviy dizayn asoslarini o‘zlashtirish va madaniy merosni innovatsion shakllarda o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shunday ekan, har bir pedagog yangi texnologiyalarni o‘z kasbiy faoliyatiga integratsiyalashga intilishi lozim.